

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

MIRZAYEV AXRORJON AZAMOVICH

**IBN AL-ARABIIY TASAVVUFIIY QARASHLARINING
FALSAFIY-ANTROPOLOGIK TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Mirzayev Axrorjon Azamovich

Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy-antropologik tahlili3

Мирзаев Ахроржон Азамович

Философско-антропологический анализ тасаввуф взглядов Ибн
аль-Араби23

Mirzaev Akhrorjon Azamovich

Philosophical and anthropological analysis of Ibn al-Arabi's tasawwuf views.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

MIRZAYEV AXRORJON AZAMOVICH

**IBN AL-ARABIY TASAVVUFİY QARASHLARINING FALSAFIY-
ANTROPOLOGIK TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fal892 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Boltayev Abdurahim Amonovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Xolmo‘minov Ja‘far Muhammadiyevich
falsafa fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “24” iyun soat 14⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (679 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “5” iyun kuni tarqatildi.

(2025 yil “5” iyun da 15 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi globallashuv jarayoni jamiyatning barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatib, bir tomondan taraqqiyotga zamin yaratayotgan bo'lsa, boshqa tomondan tinchlikni saqlash, inson ma'naviy olamining pokligini ta'minlash, axloqiy muammolarni bartaraf etish kabi jiddiy vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda boy tarixiy meros va qadriyatlarga tayangan holda yangi ta'lim-tarbiya usullarini ishlab chiqish, yoshlarda milliy g'urur va faxr tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fikrlariga sodiq, ertangi kunga ishonch bilan qaraydigan yetuk avlod sifatida tarbiyalashi zarur. Aynan shu nuqtayi nazardan, Ibn Arabiy merosini o'rganish, uning falsafiy va tasavvufiy qarashlari orqali yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish va ularning mafkuraviy barqarorligini mustahkamlash, inson tabiatini tasniflanishi, unga xos shaxsiy fazilat va qobiliyatlarning ijtimoiy asoslarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy-tadqiqot markazlarida tasavvuf, uning insoniyat hayotidagi o'rni, Sharq xalqlari tafakkurining shakllanishiga hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va mutasavviflarning ma'naviy merosiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Tasavvufiy ta'limotlarni falsafiy-antropologik jihatdan tahlil qilish olam va odam o'rtasidagi bog'liqlik, komil insonni tarbiyalashda, insonparvarlik va erkin fikrlash g'oyalarini rivojlantirishda asosiy manba bo'lib alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, Shayx Muhyiddin ibn Arabiy merosidagi tasavvufiy-irfoniy g'oyalar, tasavvufga xos inson va borliq birligi uyg'unlashuvi g'oyasiga asoslangan falsafiy tizimning, bilishda musulmon ilohiyotidagi yondashuvlarga munosabat hamda "komil inson" konsepsiyasining inson axloqini shakllantirishdagi rolini va yoshlar tarbiyasidagi o'rnini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarda bilim va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda muqaddas dinimiz, milliy qadriyatlarimizni, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini targ'ib etishga doir islohotlar olib borilmoqda. "O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" maxsus rezolyutsiyasida belgilangan vazifalar yoshlarimiz o'rtasida radikal karashlar tarqalishining oldini olish, to'g'ri yo'ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarishga xizmat qiladi. Zero, dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini singdirish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi"¹. Ayniqsa, Ibn Arabiyning tasavvufiy ta'limotidagi "inson tabiati", "komil inson", "qalb va nafs istaklari" tushunchalari asosida o'zlikni anglash, ilm va amal birligi hamda haqiqatni izlash haqidagi g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: "O'zbekiston", 2024. –Б.479.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi O‘RQ-1037-son “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yilning 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sharqshunos olimlar, tarixchi va faylasuflarning Ibn al-Arabiy ta’limotini o‘rganish borasidagi ilmiy izlanishlarini atroflicha tahlil etish, bu ta’limotining hozirgi davr uchun ham ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi. Yevropa va AQSHning sharqshunos, islomshunos va faylasuf olimlari, xususan, Dj.S.Trimingem, A.Knish, F.Rouzental, R.Landou, R.Nikolson, G.Korbin, P.Kotes, M.Xodkevich, R.Netler, A.Afifiy, A.Diyap, S.Nasr kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan².

²Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Пер.санг. А.А.Ставиской. М: “София”, ИД “Гелиос”, 2002.; А.Кньш. Учение Ибн Араби в поздней мусульманской тардиции // Суфизм в контексте мусульманской культуры. – М., 1989.; Исламские мистики. / Пер. с. нем. В.Г.Ноткинон. – СПб.: Евразия, 2003.; Ф.Роузентал Торжествознания. (концепциязнаниявсредневековьисламе). – Москва, 1978.; Landau R. The philosophy of Ibn Arabi. – New York. 1959.; R.A. Nicolson The Idea of Personality in Sufism. – Cambridge, 1923.; Н.Сорбин Creative Imagination in the Sufism of Ibn ‘Arab. – Paris, 1958.; Coates P. Ibn ‘Arabi and Modern Thought: The History of Taking Metaphysics Seriously. – Oxford: Anqa. 2002.; Chodkiewicz M. An Ocean Without Shore: Ibn ‘Arabi, the Book, and the Law. – Albany: State University of New York Press, 1993.; Nettler R.J. Sufi Metaphysics and Quranic Prophets: Ibn ‘Arabi’s Thought and Method in the Fusus al-Hikam. – Oxford: Islamic Texts Society. 2003.; Affifi A. The Mystical Philosophy of Muhid-din Ibnul Arabi. – Cambridge, 1939.; Diyab A.N. The Dimensions

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida M.Stepanyans.,A.Xismatulini, A.Smirnov, L.Tuxvatullin va M.Xefiyan kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida Ibn al-Arabiyning diniy-falsafiy va irfoniy qarashlari hamda tasavvufiy g'oyalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili amalga oshirilgan³.

O'zbekistonda Ibn al-Arabi tasavvufiy qarashlari N.Komilov, J.Xolmo'minov, O.Davlatov, Z.Isaqova, A.Boltayev, B.Namozov tomonidan o'rganilgan. Xususan, J.Xolmo'minov Vahdat ul-vujud falsafasi va uning naqshbandiya ta'limotiga ta'sirini, O.Davlatov Ibn al-Arabi va uning vahdat ul-vujud falsafasini, Z.Isaqova irfon va uning sharq falsafiy tafakkuri rivojida o'rini, A.Boltayev Muhyiddin Ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tadqiq etishgan bo'lsa, B.Namozov Abu Bakr Kalobodiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borishgan⁴.

Jahonning sharqshunos, tarixchi va faylasuf olimlarining Sharq mutafakkirlari ijodi, xususan, Ibn al-Arabi ta'limotini o'rganish bo'yicha yaratilgan tadqiqotlari hozirgi davr uchun ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Biroq O'zbekistonda Ibn al-Arabi falsafasining, uning tasavvufiy qarashlaridagi falsafiy-antropologik jihatlari o'rganilmaganligi bois monografik planda yaxlit holda tadqiq etish zarurdir. Mazkur tadqiqot ishida ana shu zaruriyat anglagan holda Ibn al-Arabi falsafasining tasavvufiy-irfoniy dunyoqarash shakllanishiga ta'sirini asoslashga harakat qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti va talaba yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishning tarixiy masalalari (2022-2025-yillar)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ibn al-Arabi tasavvufiy qarashlarining falsafiy-antropologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tasavvufiy-irfoniy ta'limotlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini hamda ularning Ibn al-Arabi qarashlariga ta'siri va unga ta'sir ko'rsatgan omillarni tadqiq etish;

of Man in Ibn Arabi's Philosophy. – Cambridge, 1981.; Nasr S.H. Three Muslim Sages. Avicenna –Suhrawardi – IbnArabi. – Cambridge, 1967.

³ Степанянц М.Т. Восточная философия. – М., 2001.; Хисматулин А.А. Суфийская ритуальная практика (на примере братства Накшбандийа). СПб., 1996. 208 с.; Хефийан М.Т. Суфийская философия Ибн Араби "Единство гносеологии, этики и онтологии". диссер. канд.филос.наук. –М, 2004.; Л.И.Тухватулина, Антропология Ибн Араби // Мусульманский мир, 2000.

⁴ Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Тошкент: Маънавият, 2009. – 224 б.; Холмўминов Ж. Вахдат ул-вужуд фалсафаси ва унинг Накшбандия таълимотига таъсири (Ибн ал-Арабий, Муҳаммад Порсо ва Абдурахмон Жомий қарашлари асосида)". Фал.фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2020. – 60 б.; Холмўминов Ж. Қиёсий тасаввуфшунослик (Монография). – Тошкент: "Тошкент давлат шарқшунослик университети", "Yosh avlod matbaa", 2021. – 266 б. (16,5 б.т.); Жаъфар Холмўминов. Тасаввуф онтологияси (Монография). – Тошкент: "Тошкент давлат шарқшунослик университети", "Yosh avlod matbaa", 2021. – 190 б. -11,5 б.т.; Холмўминов Ж. Ирфон фалсафаси. Изоҳли луғат-қўлланма. – Тошкент, 2025. – 240 б.; Isaqova Z.R. Irfon va uning Sharq falsafiy tafakkuri rivojida o'rini(X-XIII asrlar). Фал.фан.док.(DSc) дисс.автореф–Samarqand, 2022. –Б. 30.,; О.Давлатов. Ибн ал-Арабий ва унинг вахдат ул-вужуд фалсафаси (монография). – Т.: Фан, 2007.; Boltayev A. Muhyiddin ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.: Fals. fan. dokt (DSc) diss. avtoreferati. –Buxoro, 2023. –B. 32; Намозов Б. Муҳаммад Порсо тасаввуфий таълимотининг фалсафий асослари.-фал.фан.док. дисс. 2020.,

Ibn al-Arabiy tasavvufiy ta'limotining mazmun-mohiyati va ilmiy-konseptual asoslarini ochib berish;

Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlarining gnoseologik va metafizik, falsafiy-antropologik asosi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

Ibn Arabiyning tasavvufiy ta'limotidagi "inson tabiati", "komil inson", "qalb va nafs istaklari" tushunchalarini falsafiy-antropologik jihatdan asoslash;

Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarida inson va borliq birligi konsepsiyasining ijtimoiy ahamiyatini asoslab berish;

Ibn al-Arabiy qarashlarida komil inson tarbiyasiga oid g'oyalarning antropologik tahlilini amalga oshirish hamda ulardan ma'naviy tarbiya jarayonida foydalanishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlari ifoda etilgan asarlar hamda ularning tahlili amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Ibn al-Arabiy tasavvufiy-irfoniy qarashlarining falsafiy-antropologik xususiyatlarini, gnoseologik va metafizik asoslarini, inson va borliq birligi konsepsiyasining ijtimoiy ahamiyatini tadqiq etish tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, gipotetik deduktiv dialektik, sinergetik, intensional-teleologik tushuntirish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ibn al-Arabiy falsafiy-antropologik ta'limotida inson tabiati voqeyiy va hayotiy asosda tasniflanishi (faol ijtimoiy subekt), unga xos shaxsiy fazilat va qobiliyatlarning (jism, aql va ruh birligi), tabiatida ixtiyor, tanlash, ma'rifat va o'zini anglash kabi hayotiy funksiyalarning ijtimoiy asoslari hamda asosiy maqsad (ma'rifat, haqiqatni anglash va komillikka yetish) va vazifalari (faol ma'naviy vazifa va mas'ul va maqsadli mavjudot) konseptual asoslangan;

Ibn Arabiy tasavvufiy-irfoniy qarashlari asosida ilohiy ilmda barcha moddiy narsalarning g'oyalari mavjudligi, ular ilohiy ilm negizidan kelib chiqishi (irfoniy bilimning aql bilan uyg'unligi) hamda pirovardida unga qaytishi haqidagi tasavvufga xos tajribani (ilhom, kashf, yaqin) inson va borliq birligi uyg'unlashuvi g'oyasiga asoslangan falsafiy tizim ko'rinishida ratsionallashtirgani ochib berilgan;

Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlarida "Alloh – odam – olam" birligi munosabatlarining ontologik, irfoniy va ma'naviy o'zaro bog'lanishlar tizimiga asoslanishi hamda mutlaq haqiqatning mohiyatini anglash (ilm, fahm va kashf) va bilishda musulmon ilohiyotidagi yondashuvlarga munosabati "vahdat ul-vujud", "insoni komil", irfoniy tajriba, ruhiy poklanish va ma'naviy safar konsepsiyalari asosida aniqlashtirilgan;

Ibn Arabiyning tasavvufiy ta'limotidagi "inson tabiati", "komil inson", "qalb va nafs istaklari" tushunchalari asosida borliqning yaratilish sababi va oxirgi maqsadi konsepsiyasining mohiyati axloqiy ideal, faol subyekt sifatida ochib berilgan hamda olamning kosmogon xaritasini tushunishga doir yondashuvi ilohiy ilm, ruhiy olam, real olam, moddiy olam xususiyatlari asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ibn Arabiyning “komil inson” tushunchasi bilim va haqiqatga intilish, axloqqa muvofiq yashash, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish kabi fazilatlarini aks ettirishi, sog‘lom mulohaza va chuqur e’tiqod o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi, o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy mavjudot sifatida o‘rish, Alloh bilan uyg‘unlikka intilish, barcha mavjudotlar bilan o‘zaro bog‘liqlikni anglash va insonning to‘liq salohiyatiga (ma’naviy, aqliy va hissiy) erishishida tarbiya dasturi ekanligi asoslab berilgan;

Muhyiddin ibn Arabiyning ayol va erkak inson salohiyati jihatidan mutlaq teng ekanligini ontologik masala sifatida talqin qilganligi, erkak va ayol zaruriy kosmik birlikda juftlashgan ikkilik nikohdagi tushunchalari islom tarixida ayollar haqidagi yangicha qarashlari musulmonlarni ilhomlantirishga, ularning qarashlarini qayta baholash uchun poydevor bo‘lishga va madaniy o‘zgarishlar jarayonini to‘g‘ri yo‘naltirishga asos bo‘lganligi dalillangan;

Ibn Arabiyning tasavvufiy ta’limotidagi insonni anglash muammosi “komil inson” g‘oyasi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga, “inson – borliq – Yaratuvchi” munosabatidagi birlik konsepsiyasi zamonaviy ma’naviy-ijtimoiy taraqqiyotga, qalb va nafs o‘rtasidagi muvozanat inson shaxsiyatining ichki komilligi uchun asos ekanligi hamda Ibn Arabiyning “komil inson” modeli asosida tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqish va integratsiya qilish zarurati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Ibn al-Arabiy ta’limotining mohiyatini o‘rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, ajdodlar merosini o‘rganishning ahamiyatiga oid ilmiy izlanishlarda, tasavvuf manbashunosligiga oid asarlarni yaxlit va atroflicha tahlil etishda metodologik yondashuvlar va bu boradagi nazariy xulosalarni mukammallashtirishda, o‘rta asr so‘fiylik ta’limotlari genezisi, axloqiy-tarbiyaviy mohiyatini o‘rganishga oid tadqiqotlarda, jahon hamjamiyatida islomning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, zamonaviy jamiyat yoshlarda komillik fazilatlarini, intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishni shakllantirishda, mutafakkirlarining komil inson haqidagi qarashlarining falsafiy mohiyatini ochib berish va komil inson tushunchasining taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilishda, shuningdek, “Falsafa tarixi”, “Tasavvuf falsafasi”, “Tasavvuf tarixi”, “Tasavvuf germenovikasi”, “Dinshunoslik” fanlari mazmunining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishva boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalardan O‘zbekistonda ilm-fan, tasavvuf ta’limoti va ma’naviy meros tarixini o‘rganish, ta’lim muassasalarida hamda oliy o‘quv yurtlarida tasavvuf tarixiga oid maxsus kurslar tashkil etish, davlat dasturlarini bajarishda, “Ma’naviyat va ma’rifat”

markazlarining tarbiyaviy faoliyatida, tasavvuf tarixi bilan bog'liq ilmiy asoslangan targ'ibot materiallari, tasavvufga oid kitoblar, fuqarolarning diniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yosh avlodni buyuk ma'naviy merosga hurmat, mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini oshirishda hamda komil inson konsepsiyasi asosida zamonaviy shaxs tarbiyasi uchun yo'nalishlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy-antropologik tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Ibn al-Arabiy falsafiy-antropologik ta'limotida inson tabiati voqeyiy va hayotiy asosda tasniflanishi (faol ijtimoiy subyekt), unga xos shaxsiy fazilat va qobiliyatlarning (jism, aql va ruh birligi), tabiatida ixtiyor, tanlash, ma'rifat va o'zini anglash kabi hayotiy funksiyalarning ijtimoiy asoslari hamda asosiy maqsad (ma'rifat, haqiqatni anglash va komillikka yetish) va vazifalari (faol ma'naviy vazifa va mas'ul va maqsadli mavjudot)ga oid ilmiy xulosa va yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariylarini tayyorlash hamda buyurtma asosida "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy falsafiy merosi" nomli ensiklopedik kitobni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yil 10-fevraldagi 02/60-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ibn al-Arabiy ta'limotidagi "komil inson" konsepsiyasi mamlakatimizda tasavvufiy ta'limotlarni falsafiy-antropologik yondashuv asosida tahlil qilishda muhim manba va manbahunoslik, falsafa tarixi, islom dini tarixi va ta'limoti kabi fan sohalari bo'yicha tayyorlangan ilmiy to'plam, monografiya va kitoblarni boyitishga xizmat qilgan;

Ibn Arabiy tasavvufiy-irfoniy qarashlari asosida ilohiy ilmda barcha moddiy narsalarning g'oyalari mavjudligi, ular ilohiy ilm negizidan kelib chiqishi (irfoniy bilimning aql bilan uyg'unligi) hamda pirovardida unga qaytishi haqidagi tasavvufga xos tajribani (ilhom, kashf, yaqin) inson va borliq birligi uyg'unlashuvi g'oyasiga asoslangan falsafiy tizim ko'rinishida ratsionallashtirganiga oid ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar Respublika va ma'naviyat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2022-2023 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 7-iyundagi 218/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ibn Arabiy tasavvufiy qarashlari asosida konfessiyalararo va millatlararo bag'rikenglikni mustahkamlash, jamiyatning turli

qatlamlari o'rtasidagi hamjihatlik madaniyatini yuksaltirish va ma'naviy-ma'rifiy vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan;

Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlarida "Alloh – odam – olam" birligi munosabatlarning ontologik, irfoniy va ma'naviy o'zaro bog'lanishlar tizimiga asoslanishi hamda mutlaq haqiqatning mohiyatini anglash (ilm, fahm va kashf) va bilishda musulmon ilohiyotidagi yondashuvlarga munosabati "Vahdat ul-vujud", "Insoni komil", irfoniy tajriba, ruhiy poklanish va ma'naviy safar konsepsiyalari asosida aniqlashtirilganligiga doir ilmiy yangiliklardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida e'fira uzatilgan "Buyuk yurt allomalari" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 29-martdagi 02-06-431-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ibn Arabiy falsafiy-antropologik qarashlari, xususan "komil inson", "qalb va nafs istaklari" kabi tushunchalari ilmiy-ma'rifiy kontentning boyitilishiga, yoshlar ongini mustahkamlashga, tasavvufga oid bilimlarni ommalashtirish va uni zamonaviy kontekstda tushunishga, fikrlash va tahlil qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan;

Ibn Arabiyning tasavvufiy ta'limotidagi "inson tabiati", "komil inson", "qalb va nafs istaklari" tushunchalari asosida borliqning yaratilish sababi va oxirgi maqsadi konsepsiyasining mohiyati axloqiy ideal, faol subyekt sifatida ochib berilgan hamda olamning kosmogon xaritasini tushunishga doir yondashuvi ilohiy ilm, ruhiy olam, real olam, moddiy olam xususiyatlari doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106 son "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining g'arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi" (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida nashr etilgan ishlarda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 29-martdagi 04/11-2370-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlari asosida irfon va Vahdat al-vujud falsafasining mohiyati, "Komil inson g'oyasi" hamda diniy bilimlarning zamonaviy shaxs tarbiyasi va imon butligini ta'minlashdagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi,

muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Ibn al-Arabiyning irfoniy-tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar hamda arab-musulmon Sharqida tasavvufiy-irfoniy ta'limotlarning rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan.

Tasavvuf falsafasining yetuk vakili, diniy-tasavvufiy qarashlarni yangi bosqichga olib chiqqan mutafakkir Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlaridagi falsafiy-antropologik jihatlarni tadqiq etish, bu asosida gnoseologik va teologik qarashlarning islom olamidagi rivojlanish tendensiyasini aniqlash muhim falsafiy tadqiqotlardan biridir. Buyuk mutasavvuf, alloma Ibn al-Arabiy Abu Bakr Muhammad ibn Ali Muhiyiddin 1165-yil 7 avgustda Ispaniya (Andalusiya)ning Mursiya shahrida tavallud topgan. “Buyuk murabbiy”, “Ulug' Shayx” (ash-Shayx al-Akbar) unvonlariga sazovor bo'lgan. Uning yaratgan ta'limoti o'z davridayoq O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida, asosan, Misr, Suriya, Eron, Iroq, Turkiya, Ispaniya, Shimoliy Afrika shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan va mashhur bo'lgan⁵.

Tadqiqotda tasavvufshunos olim J.Xolmo'minovning: “Ibn al-Arabiy bolaligidanoq falsafa va tasavvuf ilmi sirlarini o'rganishga qiziqqan. Shuning uchun bo'lsa kerak, bir qancha yetuk olimlardan saboq olgan, ularning suhbatlaridan bahramand bo'lgan. Shu jumladan, nafs sirlarini bilish, tasavvuf va falsafa o'rtasidagi farqni tushunishda Ibn Rushdning fikr-mulohazalariga murojaat etgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Ibn al-Arabiy yoshligida keyingi butun hayotini o'zgartirib yuborgan tush ko'radi. Shu tush tufayli butun Ispaniya bo'ylab safarga chiqadi, so'ng Tunis, undan so'ng Marokashga borib, o'zining “Kitob al-asro” asarini yozadi. Ilm yo'lida Andalusiya hamda Shimoliy Afrikada joylashgan ilmiy-madaniy markazlarni kezib yurgan Ibn al-Arabiy 1200-yilda muborak haj safariga boradi va buning natijasida Makka shahrida ikki-uch yil qolib ketishiga to'g'ri keladi. O'zining eng mashhur asarlaridan biri – “Futuhot al-Makkiya” (Makkaning fath etilishi; Makkaning ochilishi) yozishni ham shu yerda boshlaydi. Ushbu shaharda u o'z davrining mashhur hadisshunoslaridan biri hisoblangan Mukinuddin Zohir bin Rustam Isfahoniy bilan tanishadi. Ana shu davrda u Mukinuddinning qizi – Nizomga oshiq bo'lib, uning ishqida g'azallar yozaboshlaydi”⁶ tahlillari keltirilgan va izohlangan.

⁵ Болтаев А. Ибн Арабийнинг ҳаёти ва тасаввуф таълимотида тутган ўрни. // Имом Бухорий сабоқлари, - №4, 2022. -Б.83-85.

⁶ Холмўминов Ж. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва унинг накшбандия таълимотига таъсири (Ибн-ал-Арабий, Муҳаммад Порсо ва Абдурахмон Жомий қарашлари асосида). Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент. 2020. –Б. 20-21.

Soʻfiylarning hayot tarzi (nafsnı tiyish, ochlikka bardosh berish, sabr-toqatli boʻlish va h.k.) har qanday dindorga toʻgʻri kelmaganligi sababli tasavvuf ezoterik (“yopiq”) xarakterga ega boʻladi. Ushbu jihati tasavvufni ismoiliya oqimiga yaqinlashtiradi. Tasavvufda ham ismoiliya oqimiga xos boʻlgan taʼvil anʼanasi, Qurʼonning simvolik-allegorik talqini, uning botiniy, “yashirin” maʼnolarini izlash amalga oshirilardi. Keyinchalik bu urinishlar soʻfiylar amaliyoti va hayot tarzini falsafiy asoslashda xizmat koʻrsatadi.

Dissertant fikriga koʻra, tasavvufning yana bir muhim elementi bu – maʼnaviy ustozlar (shayh, pir, murshidlar) rahbarligida tasavvufning nazariya va amaliyotini oʻzlashtirish boʻlib, bunday rahbarliksiz shogird (murid) oʻz aqli va sogʻligiga zarar yetkazishi mumkin edi. Soʻfiylikda yirik shayhlar vafotidan soʻng ularni avliyolar darajasiga koʻtarish rasm boʻlgan, mozorlari ziyoratgohlarga aylantirilgan. “Avliyo” tushunchasi ham keyinchalik “falsafiy”, doktrinal tasavvufning shakllanishida oʻz oʻrnini egallaydi.

Dissertant mulohazalariga koʻra, Ibn al-Arabiy taʼlimoti uni nafaqat musulmon ilohiyshunosligining buyuk namoyandasi sifatida tanitdi, shu bilan birga, butun islom olami maʼnaviy madaniyatining rivojlanishiga buyuk hissa boʻldi. Ibn al-Arabiyning falsafiy dunyoqarashida borliq tushunchasi panteistik ruhda talqin etiladi. Uning fikricha, barcha narsalarning mohiyatida maqsadga muvofiqlik mavjud. Shunday ekan, borliq, olam azaldan uygʻun va belgilangan tizimlar asosida yaratilgan va shakllantirilganligi kelib chiqadi. Ibn al-Arabiy taʼlimotiga koʻra inson borliq yaratilishining sababi va oxirgi maqsadidir, degan fikrni ilgari surgan holda Alloh tomonidan oldindan oʻylab qoʻyilgan yaratilishni amalga oshirishning bosqichlarini boshidan oxirigacha kuzatib borishga jazm qiladi. Ibn al-Arabiy asarlaridagi ilohiy mohiyat va hisobsiz haqiqatlar oʻrtasidagi ruh va materiya, birlamchi asos va uning uncha muhim boʻlmagan xususiyatlari borliqning turli darajalari oʻrtasidagi munosabatlar, yaratilgan olamning yashashi va harakatining roli toʻgʻrisidagi gʻoyalar aks ettirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ibn al-Arabiy antropologik qarashlarining falsafiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Ibn al-Arabiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy-antropologik jihati va uning oʻziga xos xususiyatlari, uning tasavvufiy-irfoniy gʻoyalarining gnoseologik va metafizik asoslari hamda inson tabiati masalasi tadqiq etilgan.

Ibn al-Arabiy tasavvufiy taʼlimotining mohiyatini falsafiy-antropologik qarashlar tashkil etadi va insonga yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Ibn al-Arabiy talqinida bu tabiiy jarayon ilohiyot ruhida talqin etiladi va boshdan oyoq ilohiy ruh sifatida bayon etiladi. Muhyiddin Ibn Arabiy ayol va erkak inson salohiyati jihatidan mutlaq teng ekanligini eʼtirof etgan. U erkakka ayoldan ustun berilgan “daraja”ni⁷ ontologik masala sifatida talqin qilgan, koinotning yagona erkaklik tasvirlarini rad etib, oʻrniga erkak va ayol zaruriy kosmik birlikda juftlashgan ikkilik nikohdagi tushunchani ilgari surgan. Bu tushuncha ham Yaratilish, ham Ilohiy bilim darajasida amal qiladi.

⁷Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содик. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси.- Тошкент,: “Ҳилол-нашр”.-2022.-Б.482 (Бақара сураси, 228-оят).”

Dissertatsiyada Muhyiddin ibn Arabiy islom madaniyati tarixida ayol haqidagi yangicha qarashni ilgari surganligi asoslab berilgan. Bu qarash, haqiqatan ham, zamonaviy musulmonlarni ilhomlantirishga, ularning Islomdagi ayollar haqidagi tushunchalarini qayta baholash uchun poydevor bo‘lishga va madaniy o‘zgarishlar jarayonini to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirishga arziydigan darajadadir. Ibn Arabiy inson mohiyatini barcha insonlarda, erkak va ayollarda bir xil deb hisoblaydi. Ikkala jins ham insoniylik nuqtayi nazaridan teng va bu ularning asl mohiyatidir. Erkaklik va ayollik inson tabiatidagi tasodifiy holatlardir. U shunday deydi: “Insoniyat erkak va ayolni birlashtiradi, unda erkaklik va ayollik tasodifiy holatlar bo‘lib, insoniy mohiyat emas”⁸. Shuningdek, u yana shunday deydi: “Momo Havo Odam Atodan yaratilgan, shuning uchun u ikkita xususiyatga ega: kelib chiqishi tufayli erkaklik va tasodif tufayli ayollik”⁹.

Tadqiqotchi fikricha, Ibn Arabiy tasavvuf rasional bilishni inkor etmagan, biroq ayni paytda uning imkoniyatlari cheklanganligini ham e‘tirof etgan. “Alloh darvozasigacha yetaklab borgunga qadar aql ajoyib va qimmatlidir. Bu darvozaga yetdim deganingda, undan voz kech... o‘zingni Allohga topshir: endi “qanday qilib” va “nima uchun” degan savollarga javob izlash befoyda”¹⁰. Ibn Arabiyning fikriga ko‘ra, haqiqiy bilish jarayonida aql va sezgilar o‘z o‘rniga ega, ya‘ni cheklangan va shu cheklangan doirasida haqiqiydir.

Ibn Arabiy sharhlovchilari ko‘pincha ahamiyatsiz tafsilotlarga e‘tibor qaratib, uning eng muhim yutug‘i bo‘lgan – butun dunyoqarashini shakllantirgan dialektikani e‘tibordan chetda qoldirganlari ajablanarli emas. Shayxning keyingi asarlari, ayniqsa, eng nufuzli “Fusus al-hikam” va “al-Futuh al-makkiya”¹¹ kabi kitoblarining umumiy ruhi va jo‘shqinligini belgilab bergan narsa – Koinot va Mutlaq, Inson va Koinot, Inson va Mutlaq, Yagona va Ko‘plik, Yaxshilik va Yomonlik kabi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar dialektikasini ifodalash istagi bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin. Ushbu dialektikani hisobga olmasdan, uning gnoseologiyasini to‘g‘ri tushunish va baholash mumkin emas. U umumiy jihatdan quyidagicha: sufiy-gnostik (al-orif) tomonidan Mutlaqni anglash, uning nomlari va xususiyatlari (al-asma va-s-sifat) Koinot narsalarida moddiy ko‘rinish oladi, bu dinamik va ziddiyatli jarayondir. Uning g‘oyalari bilan bilvosita tanish bo‘lgan aksariyat tadqiqotchilar uni shunday atashadi. Dissertant fikricha, bu ta‘rif Ibn Arabiy ta‘limotining mohiyatini tushunishga hech qanday yordam bermaydi va bu faqatgina uning metafizik ta‘limotini noto‘g‘ri tushunishga asoslangan qotib qolgan qolipdan iborat, xolos.

Ibn Arabiy ta‘limotini bir qator ratsional qoidalarning bayoni (ba‘zan juda o‘ziga xos) sifatida ko‘rib chiqilgan va ko‘rib chiqilmoqda. Bu ma‘lum darajada haqiqatga mos keladi, lekin shu bilan birga, fikrimizcha, Shayx o‘quvchi bilan muloqot qiladigan ikki xil daraja, mavhum-metafizik va tasavvufiy-intuitivlikni (yoki hatto ikki xil tilni) farqlashi kerak¹². Tavhidni nazarda tutganda, rahmatning

⁸<https://ibnarabisociety.org/woman-as-human-being-and-cosmic-principle-souad-hakim>

⁹ Ибн ал-Арабий. Футухот ул-Маккия. 4–жилд. – Миср. 1392, –С 84.

¹⁰ Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма.- Москва.: Наука, 1987, -С. 30-31.

¹¹Кныш А. Основные источники для изучения мировоззрения Ибн 'Араби: «Фусус ал-хикам» и «ал-Футухат ал-маккийя». Автореф. канд. дис. ... Л., 1986.

¹²Суфизм в контексте мусульманской культуры. / ред. Пригарина, Н.И. – М.: Наука., 1989.–С.13

ustuvorligi Allohning shunchaki “tanlovi”dan ko‘ra ko‘proq narsani anglatadi, chunki bunda hech qanday tasodifiylik yo‘q. Inson nuqtai nazaridan, biz qattiqqo‘l emas, mehribon, qattiq emas, yumshoq bo‘lishni tanlay olamiz. Biroq, Allohning tanlovi yo‘q, chunki marhamat voqelikning o‘ziga xosdir. U g‘azabni rahmshafqatdan, qattqlikni muloyimlikdan ustun qo‘ya olmaydi, chunki bu voqelikni yo‘qlikdan, mavjud bo‘lmaganni mavjud bo‘lgandan, O‘zidan boshqalarni ustun qo‘yish bo‘lardi. Bu koinot qurilgan asosiy haqiqatga - Allohdan boshqa haqiqat yo‘qligi, Allohning borlig‘idan boshqa chin borlik yo‘qligiga zid keladi

Tadqiqotchi fikricha, Ibn Arabiy o‘z asarlarining katta qismini insonlarning ilohiy shaklga xos bo‘lgan xususiyatlarni qanday ro‘yobga chiqarishlari kerakligini tushuntirishga bag‘ishlaydi. U buni Vujudning o‘zi, ya’ni barcha mavjudotning manbai bo‘lgan rahmat nuqtai nazaridan bayon etadi. Shu sababli u odatda fikrning asosiy qoidasi - tavhidning oqibatlarini, uning birinchi xulosasi bo‘lmish payg‘ambarlik ma’nosini ochib berish orqali tushuntiradi. Uning bir qancha kitoblari rahmat birligini har biri o‘ziga xos tarzda namoyon etgan payg‘ambarlarning ko‘pligi g‘oyasi atrofida tuzilgan. Insondan boshqa hamma narsa yaratilgandir, ammo inson ham yaratilgan, ham Haqiqiydir. Aslida, mukammal inson - bu Yaratilish sodir bo‘ladigan Haqiqiy, ya’ni koinot uning tufayli yaratilgan¹³. Demak, pirovard maqsad - shu maqsad yo‘lida paydo bo‘lishning oldingi sabablari yaratilgan narsadir. Va bu yakuniy maqsad - mukammal insondir. “Mukammal” deyishning sababi shundaki, “inson” nomi shaklan unga o‘xshashlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Masalan, siz Zaydda ilohiy haqiqatlar zohir bo‘lgan bo‘lsa-da, Amrda zohir bo‘lmagan bo‘lsa-da, Zayd inson, Amr ham inson, deyishingiz mumkin... Xuddi shuningdek, koptok ham dumaloqligi jihatidan osmon sferasiga o‘xshaydi, biroq osmon sferasining mukammalligini koptokning mukammalligi bilan qanday taqqoslash mumkin? Men “mukammal” deganda aynan shuni nazarda tutaman¹⁴.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Ibn Arabiy falsafasining umumiy tizimini tushunish uchun inson masalasi nafaqat bir bo‘lagidir (juz), balki u falsafaning asosiy kaliti (kulp) sifatida o‘rganiladi. Inson olamning eng mukammal borlig‘i bo‘lib, uning asosini o‘z-o‘zidan mavjud va Mutlaq Absolyut, o‘z-o‘zidan rivojlanishi, hamma borliq ustidan nazorat qilishi va boshqarishi to‘g‘risidagi g‘oya tashkil qiladi. Bu ta’limot olamning birligi va uninghar xil darajalarga bo‘linishi (taboqat), borliq Alloh tomonidan har lahzada tadrijiy yo‘q qilinib va qayta paydo qilinib turishi to‘g‘risidagi g‘oyadan kelib chiqadigan arab-musulmon falsafiy ta’limotidir. Muhyiddin Ibn Arabiy ayol va erkak inson salohiyati jihatidan mutlaq teng ekanligini e’tirof etgan. U erkakka ayoldan ustun berilgan “daraja”ni ontologik masala sifatida talqin qilgan, koinotning yagona erkaklik tasvirlarini rad etib, o‘rniga erkak va ayol zaruriy kosmik birlikda juftlashgan ikkilik nikohdagi tushunchani ilgari surgan. Buday qarash ayollarni past mavjudot deb hisoblaydigan ba’zi musulmon ekstremistlarining notabiiy fikrlaridan ham, Sharq va G‘arbda ayolning o‘rnini tarixiy, lingvistik, huquqiy, teologik va boshqa jihatlardan qayta ko‘rib

¹³William C. Chittick. *Ibnal-'Arabi's Metaphysic sof Imagination: The sufi pathof knowledge.* –New York.:State University of New York Press, 1989.–p. 132.

¹⁴ William C. Chittick. *Ibn 'Arabi: Heir to the Prophets.*– Oxford: Oneworld, 2005–Chapter 9.

chiqishni talab qiluvchi boshqa cheklovlar asosidagi mulohazalardan ham ustun turadi.

Dissertatsiyaning **“Ibn al-Arabiy tasavvufiy-irfoniy qarashlarining komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida Ibn al-Arabiy tafavufiy qarashlarida inson va borliq birligi konsepsiyasining ijtimoiy ahamiyati hamda uning komil inson tarbiyasidagi roli ochib berilgan.

Ibn Arabiy tasavvufiy ta’limotida insonlarning tabiiy tuzilishi jarayoni ilohiyat ruhida talqin etiladi va boshdan oyoq ilohiy ruh sifatida bayon etiladi. Bu g’oyaga ko’ra olam barpo etilishining asosiy sababi bu – inson. Bu g’oya barcha so’fiylar fikri va ruhining manbai bo’lib kelgan. Buyuk shayx Ibn al-Arabiy ham ushbu g’oyaga sodiq qolgan holda inson va uning oxirgi maqsadi koinot yaratilishining bosh yo’nalishi, bo’lgan degan g’oyani isbotlashga intiladi. Ya’ni, hozirgi fan bilan tushunganda Olloh va koinot antropomorf tarzida, ya’ni Olloh – xudoni odam shaklida namoyon bo’lishidan iborat, inson bir vaqtning o’zida Ollohga va yaratilgan olamga o’xshaydi, demak, inson tomonidan o’z-o’zini anglash jarayonida Olloh va koinotni bilib olishi mumkin¹⁵, degan so’fizm ta’limotini ilgari suradi.

